

UDK:635.1/.9.

PAVLOVNIYA PLANTASIYALARDA EKILGAN KO'CHATLARNI YETISHTIRISHDA QO'YILADIGAN TALABLAR

*Abdurahmonov Muhammadmo'ydin Bohodirjon o'g'li¹**Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li²**Sultonov Xumoyun Mahmudjon o'g'li³**muhhammadmoydinbdurahmonov@gmail.com¹**nazirjonovi@mail.ru²**xumoyunsu@gamil.com³**O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti**Andijon filiali ilmiy xodimlari*

Annotatsiya: Maqlada pavlovniya plantatsiyalarida ko'chatlarni parvarishlash qilishda ekilgan ko'chatlarga agrotehnik tadbirlar olib borish bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan. Bunda pavlovniya plantasiyalarida yo'g'och mahsuloti olish uchun ko'chatlarni yetishtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Pavlovniya, plantatsiya, yog'och mahsuloti, ko'chat, qator orasi, agrotexnik talablar, o'rmon.

Annotation: The article highlights information on the implementation of agrotechnical measures for planting seedlings when caring for seedlings in the Pavlovsk fields. Recommendations have been developed for growing seedlings to obtain wood products in Pavlovsk plantations.

Keywords: Paulownia, afforestation, wood products, seedlings, row spacing, agrotechnical requirements, forest.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4850-sodan «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi qarorida madaniy o'rmonzorlar tashkil qilish jumladan pavlovniya daraxtini o'stirish, ko'paytirish va uning xom-ashyosini tayyorlash sohasini rivojlantirish bo'yicha alohida chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoda eng tez o'suvchi pavlovniya daraxti haqida eshitgan inson borki, o'simlikning noyob xususiyatlari, qanday sharoitda bo'y cho'zishiga qiziqishi ortmay qolmaydi. Bugungi kunda ko'pchilik uchun yangilik bo'lgan pavlovniyadan yurtimizda dekorativ daraxt sifatida ko'chalar, dam olish maskanlari, xiyobonlar landshaft dizaynida avvaldan foydalaniladi. Ammo jahonda qimmatbaxo yog'och olish maqsadida ekiladigan pavlovniya daraxti nafaqat dekorativ ko'rinishi, balki qimmatli xususiyatlari bilan boshqa o'simliklardan ajralib turadi. Pavlovniya daraxtinig o'ziga

xos ajoyib xususiyatlaridan biri - uning tez o'sishidir. 100 yilga qadar umr kechiruvchi ushbu daraxt har 7 - 8 yilda kesilganida 4 - 8 martagacha qayta o'sib chiqadi. Daraxtga to'g'ri agrotexnik ishlov berilsa 7 yilda 1 hektaridan 350 - 500 metr kub sifatli yog' osh olish mumkin. Pavlovniya yog' ochi mustahkam, ammo yengil. Shu xususiyatiga ko'ra, qurilishning barcha sohalarida foydalanish mumkin. Pavlovniya yog' ochi mebellar, jalyuzi, musiqa asboblari, o'yinchoqlar ishlab chiqarish, kemasozlik, samolyotsozlik, avtosanoatda ishlatiladi. Ushbu daraxt yog' ochining yonish darajasi 400° S ga teng. Pavlovniya tez va chiroyli o'sishi bilan birgalikda ko'p va uzoq muddat gullab turadi va natijada ko'p miqdorda nektar beradi. Ob-havo sharoitiga qarab, Pavlovniya plantatsiyalarining 1 hektaridan 500 kilogrammdan - 1000 kilogramgacha asal olish mumkin. Pavlovniya daraxtiga hashorat tushmaydi va kimyoviy dorilar ishlatilmaydi. Shu sabab uning asali ekologik toza asal hisoblanadi. Pavlovniya daraxtidan olingan asal yengil, shaffof, yorqin rangda va xushbo'y hidli bo'ladi. Bu asalni rangi va sifati bo'yicha akatsiyadan olingan asalga taqqoslash mumkin. Pavlovniyadan olingan asal shifobaxsh bo'lib, bronxit, o'pka va nafas yo'llari kasalliklariga davo hisoblanadi. Shuningdek, o't-pufak va jigar ish foaliyatini, ovqat hazm qilishni yaxshilash xususiyatiga ega.

Pavlovniya daraxti ham yoqilg'i sifatida samarali mahsulotlardan biridir. Birinchidan, tez o'sadi va ko'p biomassa beradi. Ikkinchidan, yonganda zaharli moddalarni kam chiqaradi. Har yili qayta-qayta ekish shart emas. Pavlovniya barglari kattaligi hisobiga boshqa manbalarga qaraganda ko'proq biogaz berish xususiyatiga ega. Hozirgi kunda olimlar tomonidan termoximiyaviy va biotexnologik usulda 1 tonna Pavlovniya quruq yog'ochidan 511 litr bioetanol olishga erishildi. Birgina shu sababdan Pavlovniya daraxti "neft qudug'i" nomini oldi. Pavlovniya plantatsiyalarini tashkil etish iqtisodiyotning energiya resurslarini tejash va atrof-muhitni himoya qilish borasidagi samarali ekologik yechimlardan biridir.

Hozirgi kunda Respublikamizda o'rmon fondi yerlarida pavlovniya plantatsiyalari barpo etilmoqda. Yog'och mahsulotlari olish uchun pavlovniya nihollarini 5×3 sxemada ekish maqsadga muvofiq bo'ladi, bunda 1 ga maydonga 625 dona ko'chat ekiladi. Pavlovniya juda tez o'sgani bois, qator oralari va ko'chatlar orasini zichlab ekish mumkin emas, chunki daraxt shoxlab ketgan vaqtida bir-biriga halaqit bera boshlaydi. Bundan tashqari pavloniya daraxtidan yog'och mahsuloti olish uchun ekilganda ko'chatlar sxema bo'yicha ko'chatlarini birinchi yilida yerdan 5-7 sm balandlikda kesib tashlanadi. Kesib tashlanishiga asosiy sabab esa pavlovniya ko'chatlarini uzunligi 8 m dan kam bo'limgan uzun o'zak (asos) hosil qilish.

1-jadval

№	Variantlar	Tajribalar o'tkazilgan sana va olingan natija					
		Sana	Baland-ligi sm	Sana	Baland-ligi sm	Sana	Baland-ligi sm
1	1-variant	15.03. 2023 y	5 sm	30.03. 2023y	15 sm	15.04. 2023y	25 sm
2	2-variant	15.03. 2023 y	5 sm	30.03. 2023y	30 sm	15.04. 2023y	35 sm
3	3-variant	15.03. 2023 y	5 sm	30.03. 2023y	40 sm	15.04. 2023y	55 sm

Pavlovnlya ko'chatlarini kesib tashlangandan so'ng qolgan ildiz tizmidan 5-7 dona yangi nihollar o'sib chiqishi kuzatildi. Yangi nihollar 30-35 sm bo'lgunga qadar o'sib chiqqan nihollar ichidan bir dona yaxshi rivojlangan niholni qoldirish tavsiya etiladi.

Olib borilgan tajribalarda 3 xil variantda kesib tashlangandan so'ng unib chiqqan nixollari bo'yicha sinovdan o'tkazildi:

-№1 variantda unib chiqqan 5-7 dona yangi nihollarni o'z xolatida qoldirish;

-№2 variantda ikki dona baquvvat yangi nihollarni qo'yib qolgan nihollarni olib tashlash;

-№3 variant nihollar ichidan yaxshi rivojlangan bo'lib ajralib turgan niholni qoldiriladi va qolgan barcha nihollar olib tashlandi.



a)



b)

1 – rasm a) Kesilgan pavloniya daraxtidan unib chiqqan nihollarni olib tashlash, b) qolgan bitta niholni rivojlanishi

Dala tajribalari o'rmon xo'jaligi o'rmon fondi yerlarida ekilgan pavlovniya ko'chatlarida olib borildi (1-rasm).

XULOSA VA TAKLIFLAR.

1. Yog‘och mahsuloti olish uchun pavlovnija plantatsiyalarida ko‘chatini 5x3 sxemada ekish tavsiya etiladi.
2. Olib borilgan tajribalar natijasida 3-variandagi pavlovnija nihollarini 30-35 sm bo‘lgunga qadar yaxshi rivojlangan bo‘lib ajralib turgan niholni qoldiriladi va qolgan barcha nihollar olib tashlash tavsiya qilinadi.
3. Olib borilgan tajribalar natijasida pavlovnija ko‘chatlari ortiqcha shohlarini 5-7 martagacha olib tashlash tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ 4850-son «O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo’jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gi qarori.
2. Z.T.Bo‘stonov, M.Raximov, J.Xomidov //Pavlovnija – tez o‘suvchi manzarali daraxt // Ekologiya xabarnomasi Toshkent, 2020. (2), – B. 36-38
3. I.A.Nazirjonov, A.M.Yulbasov, X.M.Sultonov //O‘rmon ko‘chatxonalarida yetishtirilayotgan pavlovnija ko‘chatlarining parvarishlashga qo‘yilgan talablar// «Fundamental va amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari: yutuqlar va innovatsion yechimlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumanini Buxoro-2023 yil, 5-6 may.